

**ABDULLA QAHHOR HIKOYALARINI GARDNER NAZARIYASI
ASOSIDA O'RGANISH METODIKASI**

Lobar Mirxashimova

*Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-kurs magistranti*

Badiiy adabiyotni ongli va ijodiy o'qishga o'rgatish bugun har doimgidan ko'ra ham kattaroq ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu borada badiiy matn tushunchasi, uni tahlil qilish tamoyillari ayricha ahamiyat kasb etadi. Badiiy matnning adabiyotshunoslar ham, tilshunoslar ham o'rganishadi. Matnning lingvistik tahlili esa tobora ko'proq e'tibor qozonayotganligi bejiz emas. Badiiy asar matnini o'rganish bilan adabiyotshunoslar ham, tilshunoslar ham juda qadim zamonlardan buyon shug'ullanib kelgan, deb aytishimiz mumkin. Shuning uchun ham bu masala fanda an'anaviy mavzular qatorida turadi, biroq haligacha mana shu qadimiy muammoning qorong'i nuqtalari, bahstlab o'rinlari oz emas. Garchi oliy o'quv yurtlaridagi bir qator fanlar: adabiyotshunoslik va tilshunoslikka kirish, adabiyot nazariyasi, ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi, badiiy matnning lingvistik tahlili, badiiy asarni tahlil qilishning zamonaviy metodlari, ona tili va adabiyot o'qitishning zamonaviy texnologiyalari yo bevosita, yo bilvosita badiiy matn tahliliga aloqador bo'lsa-da, haligacha ularning eng samarador va amaliyot uchun eng qulay turlari ustidagi bahslar davom etmoqda. Bunda asar tili alohida e'tiborda tutiladi. Badiiy asar shakli tushunchasi "moddiy substrat"dan, ya'ni tildangina iborat emas, vaholanki, badiiy asar shaklini tashkil etuvchi elementlar sirasida (masalan, kompozitsiya bilan yonma-yon tarzda) so'z materialiga, uning tuzilishiga yetakchi o'rin xosdir. Shakl elementlari orasida mazmunning kategoriyalari hisoblanadigan g'oya, obraz, syujet, motiv, vaziyat v.b. bilan eng mustahkam va bevosita bog'lanib ketadigan tildir. Bu munosabatlarning shunday turiki, ular hatto bir-birlariga o'tib turishlari va aylanishlari bilan xarakterlanadi

«Badiiy matnning tadqiq etayotgan adabiyotshunos va tanqidchi uchun eng muhim mazmun kategoriyalari g'oya va obrazdir. Darhaqiqat, g'oya va obraz ajralmasdir, zero badiiy obraz mazmuni badiiy asar g'oyasini tashkil etadi. San'at sohasida mazmunni yaratish, birinchi navbatda obrazni yaratish sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida bayon etilgan mulohazalardan ochiq ko'rinib turibdiki, badiiy asar mazmunining umumiy talqini, ochilishi va baholanishida tilning ahamiyati nechog'lik kattadir. Shunga qaramay, badiiy matn tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda g'oya-obraz va til mutanosibliigi masalalari turlicha ko'rib chiqiladi» Mavzuning birinchi rejasida badiiy tahlilning pedagogik asoslari ko'rib chiqiladi. Maktab adabiyotini o'qitishdagi eng asosiy pedagogik tadbir badiiy asar tahlilidir. Badiiy asarni qabul qiladigan, undan ta'sirlanadigan, tahliliy oladigan o'quvchini tarbiyalagan muallimgina bosh pedagogik

maqsadiga erishgan hisoblanadi. Chunki dasturda o'rganish ko'zda tutilgan adabiy materiallarni shunchaki o'qib ketaverish bilan adabiyot o'qitish yuzaga kelmaydi. Chunki hayot tajribasi juda kam, badiiy didi yetarli shakllanmagan o'quvchilar badiiy asarni mutlaqo teskari tushinishlari mumkin. Shu bois asar tahliliga katta e'tibor zarur. Busiz bolalarda ezgu ma'naviy sifatlar turg'un qaror topmaydi. Badiiy tahlil badiiy asardagi tuyg'u, hissiyot va fikrni o'quvchi sezimlari va ongiga ko'chirish demakdir.

Badiiy tahlil: a) ilmiy-filologik; b) o'quv-didaktik singari ikki katta turga bo'linadi. Shuningdek, o'quvchilar va o'qituvchilar hamkorligida amalga oshiriladigan didaktik – o'quv tahlilning o'zi tahlilchilar miqdoriga ko'ra; a) individual – yakkama-yakka; b) guruhiy; v) ommaviy kabi uch turga bo'linadi. Mavzuning uchinchi rejasida asar tahlili tamoyillari xususida suhbatlashiladi.

O'quv tahlilida amal qilinishi shart bo'lgan bir qator tamoyillar borki, ularga rioya etilmay turib, tahlilda kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Bu tamoyillarning asosiylari quyidagilar:

1. Har bir tahlilning shaxsiy mulohaza ekanligi;
2. To'liq tahlilning bo'lishi mumkin emasligi;
3. Biror asar bo'yicha butun sinf yoki o'quvchilar guruhining bir xil fikrga kelishi shart emasligi;
4. Badiiy asarga yaxlit hodisa sifatida yondashish zarurligi;
5. Tahlilda asarning tur xususiyatlari hisobga olinishi zarurligi;
6. Asar bo'yicha bildirilgan har qanday fikr faqat asar matnidan keltirib chiqarilishi lozimligi.

O'qituvchi epik turdagi asarlar o'rganilayotganda, matnni tahlillash uchun savollar tuzib olishi shart. Ko'pincha adabiyot o'qituvchilari avvaldan savol tuzib olishmaydi. O'quvchilarga beriladigan savollarnitayyorlab olishga jiddiy ahamiyat qilishmaydi, oqibatda, o'quvchilar oldiga umumiy, tahminiy savollar qo'yiladi. Bu holga o'quvchilar hamo'rganib qolishadi. Savollarning aniq va matn ichini taftish qilishda yo'naltirilmaganligi o'quvchilarni badiiy asarni o'zi o'qimay turib, u haqida fikr aytishga odatlantiradi, chunki savol aniq berilmagach, javobham shunga yarasha bo'ladi. O'qituvchi savol tuzishga qanchalik jiddiyyondashsa, bolalarning asarni o'rganishi ham shunchalik muvaffaqiyatlibo'ladi. Har bir savolda asarning qaysi jihati o'rganilishi hisobga olinishi, o'quvchi beradigan javob ham ko'zda tutilishi kerak. O'qituvchilarning javobi keyingi savolni keltirib chiqarsa, juda yaxshi bo'ladi. Savollar asarni o'rganishdagi eng muhim jihatini o'z ichiga olishi zarur. To'rtinchi rejada badiiy asar tahlili bosqichlari haqida mulohazalar o'rtaga tashlanadi. Badiiy tahlilda, albatta, 3 bosqich bo'lishi zarur:

- 1) asar bilan tanishish;
- 2) asarni tahlil qilish;
- 3) tahlilni umumlashtirish.

Mavzuning beshinchi rejasida badiiy asarlarni o‘rganish yo‘llari yoritib beriladi. Yuqorida qayd qilib o‘tilgan bosqichlarga muvofiq tarzda amaldagi metodika badiiy asarni tahlil qilishning quyidagi yo‘llarini tavsiya etadi:

- 1) muallifga ergashib yoki yaxlit o‘rganish;
- 2) obrazlar bo‘yicha o‘rganish;
- 3) muammoli o‘rganish.

Badiiy asarni yaxlit yoki muallifga ergashib tahlillash sujetga katta e‘tibor berishni ko‘zda tutadi va 5-6-sinflarda ko‘proq ishlatiladi. Asarni tahlil etishning maskur usuliga ko‘ra, badiiy asar o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning xarakter xususiyatlari, psixologik taraqqiyot darajalari, pedagogik tayyorgarligini hisobga olgan holda ishlatilib, matndagi voqealarga katta e‘tibor beriladi. Bu yoshdagi o‘quvchilarga voqea muhimroq. Demak, o‘qituvchi voqea, sujet orqali o‘quvchilarning tuyg‘ulariga ta‘sir etishi zarur. Badiiy asarni o‘rganishning ikkinchi bir yo‘li muammoli tahlildir. Bu metod ko‘pincha yuqori sinflarda qo‘llaniladi. Bu metoddagi asosiy narsa badiiy asar tahlilida o‘quvchilar oldiga muammo qo‘yilishidir. O‘quvchilar o‘sha muammoni yechish jarayonida asar matniga tayanadi, unga estetik baho beradi. Adabiy asarni muammoli o‘rganishda o‘quvchilar oldiga hayotiy va estetik masala qo‘yiladi va unga har bir o‘quvchi o‘zicha javob beradi. Unda javoblar qancha xilma-xil bo‘lsa, o‘shancha quvonmoq kerak, chunki qolipli fikrlash, bir xil xulosaga kelish fikrsizlikdir.

6-sinf Adabiyot darsligida Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi o‘rganiladi. Adabiyotda kichik epik janrlar safiga kiruvchi hikoyalarni o‘rgatishda va bevosita tahlil qilishda jahon pedagoglari Gardner nazariyasini tavsiya qilishadi. 1983-yilda Hovard Gardner o‘zining mashhur nazariyasini ilgari surdi. Unga ko‘ra odamlar bitta yaxlit intellektga emas balki “ko‘p sonli intellekt”, aqliy qobiliyatlarning majmuiga ega bo‘ladi. Bu teoriya IQ testlarini yaqqol kamchiligini to‘ldirdi va butun ta‘lim sohasi vakillariga yoqib tushdi negaki IQ testda asosan so‘z boyligingiz, visual-tasavvur va mantiqiy fikrlashga asosiy e‘tibor bo‘lib, sport yoki musiqa sohasidagi insonlar musiqaga musiqaga qobiliyati bo‘la turib, IQ testlaridan past ball ko‘rsatadi. O‘rtadagi oraliqni tushuntirib bo‘lmas edi. KO‘P SONLI INTELLEKT nazariyasi ayni shu bo‘shliqni to‘ldirdi. Unga ko‘ra har bir insonning o‘ziga xos intellectual qobiliyati kuchli bo‘lgan sohasi bor, har bir inson o‘zining aqliy qobiliyatlarini namoyon qila oladi. Gardner xuddi shunday biz 8 ta intellect egasi ekanligimizni ta‘kidlaydi. Ular musiqa-ritmik, visual-ko‘rish, lingvistik-og‘zaki, matematik-mantiqiy, kinestetik-tanaga oid, odamlararo, shaxsiy va tabiatan.

Amerikalik olim Govard Gardnerning ta‘kidlashicha, har qanday inson tug‘ma iste’dodegasi. Har bir insonga xos xususiy holatlar, masalan, mantiqiy fikrlash, muayyanvoqelikni turli xil rakurslarda ko‘ra olish, muayyan masalaga yondashuv

printsipi va yana birqancha individual qobiliyatlar o'quvchilarda bir xil ko'rinish, holat yohud vaziyatlarda namoyonbo'lavermaydi. Ularni yuzaga chiqarish uchun muayyan vositalar, sub'ektiv yoki ob'ektiv sabablar kerak bo'ladi.

Govard Gardnerning nazariyasi yuqorida ta'kidlangan – har qanday inson individual tafakkur va dunyoqarash egasi kabi qarashlarga asoslangan. Govard dunyoni anglash va bilish (shu bilan birga voqelikkamunosabatida) nuqtai nazaridan bilim olishni sakkiz xil zakovat asosiga quradi:

1. **Lingvistik zakovat (Linguistic Intelligence)** – bunda o'quvchining qobiliyati matnlingvistikasi vositasida namoyon bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda, o'quvchilardagi ushbu zakovat turi ko'proq badiiy adabiyotni ritorik va poetik ifodasiga asoslanadi. Lingvistik zakovat orqali o'quvchi muayyan badiiy matn yuzasidan o'z fikr mulohazalarini ifoda etishi, boshqalarni o'z g'oyaviy qarashlariga ishonтира olishi mumkin bo'ladi. O'quvchilardagi lingvistik zakovatni yuzaga chiqarish va uni yanada rivojlantirish uchun badiiy matn bilan bog'liq

(A.Qahorning “O'g'ri” hikoyasi misolida) quyidagi topshiriqlar namunasidan foydalanish mumkin.

1.1. A. Qahorning “O'g'ri” hikoyasi haqida qisqa syujetli axborot tayyorlang.

1.2. Hikoya asosida insho yoki bayon yozing.

1.3. Hikoya syujeti asosida biror bir she'r yoki qisqa hikoya yarating.

1.4. A.Qahhor hikoyalari asosida yaratilgan kinossenariylar (agarmavjud bo'lsa) haqida axbort tayyorlang va hikoyaning kinotalqinidagi farqlarga alohida urg'u bering.

1.6. “O'g'rii” hikoyasida sizga ta'sir qilgan va hikoyaning badiiy g'oyaviy, estetik mazmunida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan so'z va so'z brikmalarni matndan topib belgilang hamda ularni izohlang.

2. **Mantiqiy matematik zakovat (Logical-Mathematical Intelligence)** – asosan muayyan matn ichki va tashqi xayotiga yashiringan ma'nolarni deduksiyaga (umuiy vaziyatlardan xususiy xulosalar chiqarish) asoslangan xolda inkishof etish. O'quvchilardagi bunday qobiliyat asosan ilmiy va matematik tafakkurga asoslanadi.

2.1. Hikoyadagi muammoli vaziyatlarni toping va tahlil qiling.

2.2. Adabiyotshunoslikdagi makon va zamon tushunchasini “O'g'rii” hikoyasi misolida izohlang.

2.3. Hikoyaning mantiqiy asosini ishlab chiqing.

2.4. “O'g'ri” hikoyasi syujeti dinamikasini jadval asosida tushuntiring.

2.5. Hikoyaga tanqidiy baho bering.

2.6. Hikoyadagi vaqt jadvalini yarating

3. **Jismoniy harakatga asoslangan zakovat (Bodily-Kinesthetic Intelligence)** - muayyan badiiy matnni, kitobxon fikr mulohazalarini tana a'zolari vositasida ifodalash usuli. O'rganishning bu turi inson tana a'zolari harakatiga asoslangan

bo'lib, Gardner ta'rifi bilan aytganda, bunday zakovat egalari jismoniy faoliyat vositasida muloqot qilishni sevadilar, ayni o'rinda ularga biror bir badiiy asarni sahna ko'rinishlari, turli xil harakatlar orqali o'rgatish ko'proq samara beradi.

3.1. A. Qahorning "O'gri" hikoyasi asosida sahna asari yarating.

3.2. Hikoyadagi Qobil bobo obraziga xos xususiyatlarni harakatlar orqali ko'rsatib bering.

3.3. Qobil boboning Ellikboshi bilan suhbatini jismoniy harakatlar orqali qanday tasvirlagan bo'lardingiz.

4. **Musiqiy zakovat (Musical Intelligence)** – ya'ni musiqa vositasida o'rganish usuli. Musiqiy zakovat egalarida chuqur idrok, ohang va tovushlarga sezuvchanlik qobiliyati namoyon bo'ladi. Bunday zakovat egalarida musiqaga muhabbat alohida ahamiyat kasb etadi va ular atrofidagi tovushlarga nisbatan o'ta sezuvchan bo'ladilar. Bunday iste'dod egalariga badiiy matnni musiqa, musiqiy nutq, tovushlar, ohanglar orqali o'rgatish ijobiy natijalar beradi.

4.1. "O'gri" hikoyasi ruhiga mos musiqa yarating.

4.2. Hikoyadagi Qobil boboning his tuyg'ulari, iztiroblarini qanday ohanglarda ifodalash mumkin. Rejissyorga tavsiyalar bering.

4.3. Hikoya asosida she'r yarating va unga musiqa bastalang.

5. Voqelikni tashki belgilar orqali ko'rish qobiliyati. (Visual-Spatial). Bunday qobiliyatga ega o'quvchilarga muayyan badiiy matnni kartalar, sur'atlar, illyustratsiyalar, tri di modellari, videolar, videokonferentsiyalar, televideniya, sur'atli rasmlar, grafalar va chartlar orqali o'rgatish tavsiya etiladi. Bunday zakovat egalarining o'zlari ham asarni mana shunday tashqi omillar orqali o'rganishga hayrixoh bo'ladilar. Gardner nazariyasiga asoslangan bunday yondashuv uslubi bir paytning o'zida ham ko'rish, ham eshitish va ham tafakkur

qilish orqali muayyan badiiy asar mohiyati, muallifning poetik tasvirlash mahoratini chuqur idrok eta olish imkoniga ega bo'ladilar.

5.1. A. Qahorning "O'gri" hikoyasi syujetini ranglar orqali ifodalang.

5.2. Hikoya asosida ertang yarating.

5.3. "O'gri" hikoyasidagi Qobilbobo, Ellikboshiga xos xususiyatlarni rangli tasvirlarda bering va yaratilgan san'at asaringizni matn bilan qiyoslab izohlang.

5.4. Hikoyani grafik organayzrlar orqali tahlil qiling

5.5. O'zaro muloqotga asoslangan zakovat (Interpersonal Intelligence). Bunday zakovatga ega o'quvchilar badiiy matn anglovida boshqalarning qarashlari, fikr mulohazalariga ham tayanadilar. Atrofidagilarning fikri ularda yangi g'oyalarning tug'ilishiga rag'bat berishi mumkin. O'zaro muloqotga asoslangan zakovat turida guruhlar bilan ishlash, muayyan badiiy asardagi muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish, badiiy asar asosida guruh loyihalarini yaratish, qahramonlar nutqi asosida dialoglar tuzish tavsiya etiladi.

7. Intrapersonal zakovat (Intrapersonal Intelligence). Insonning badiiy asar bilan bog'liq kechinmalari, ichki his tuyg'ularini aniq bir usul (yoki yondashuv) orqali tushunish

7.1. “O’gri” hikoyasi asosida reja tuzing.

7.2. Hikoya asosida biror bir jurnal yoki gazetaga maqola yozing.

7.3. Hikoya xususida yozilgan ilmiy, ilmiy- ommabop maqolalarga taqriz yozing.

7.4. Asar yozilgan o'tmish bilan vizual bog'laning hamda asar muallifi yoki qahramonlariga qiziqtirgan savollaringiz bilan murojaat qiling. Hikoya yaratilishining tarixiy, ijtimoiy omillarini topishga harakat qiling.

7.5. O'zingizdagi hikoya bilan bog'liq metakognativ jarayonlarni izohlang. (masalan, sizning “O’gri” hikoyasini tushunishingizga qanday faktorlar yordam berdi? Nima uchun aynan mana shu omillarga tayandingiz?)

8. Naturalistlar (Naturalist), ya'ni san'at yoki adabiyotda tabiiylik amaliyotiga ega bo'lgan shaxslar. Bunday zakovat egalari badiiy matnni tabiat (bu o'rinda real voqea - hodisalarga asoslanib o'rganish ham nazarda tutiladi) bilan bog'lab o'rganishni ma'qul ko'radi.

8.1. “O’gri” hikoyasidagi g'oyani tabiat bilan bog'lab tahlil qiling.

8.2. . Hikoyadagi siyosiy, ijtimoiy, maishiy g'oyalarni tasniflang va uni muallif yashagan davr hayoti bilan bog'lab tahlil qiling.

8.4. “O’gri” hikoyasidagi siz muhim deb hisoblagan detallarning asar g'oyasi takomilidagi ahamiyatini misollar bilan tushuntirib bering.

G. Gardnerning turfa zakovatlarga asoslangan nazariyasi, nafaqat adabiyotda, balki butun bir ta'lim sohasida o'qitishga integrativ yondashuv bo'lib, bunday o'qitish usuli talabalardagi turli xil zakovatlarni yuzaga chiqarishda, biror bir masalaga individual yondashuvda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun turli xil sohalardagi, shu jumladan ta'limdagi globalashuv jarayonlari milliy metodikada ham muayyan inqiloblarni amalga oshirishni talab etmoqda. Davlatimiz rahbari olib borayotgan islohotlarga hamohang bugun dunyoda o'qitish sifati bo'yicha eng yuqori o'rinlarda turgan Germaniya, Amerika, Angliya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahliliy asosda milliy ta'limga tatbiq etish vaqti kelmadimikin? Yangicha fikr qarashlarga ega yoshlarni har jihatdan qo'llab quvvatlayotgan, ularning olib borayotgan xayrli ishlarini yuzaga chiqishida o'z maslahat va yordamlarini ayamayotgan ustozlarimizni e'tirof etish joiz, albatta. Ammo, taassufki , oramizda “xorijiy tajriba” tushunchasiga mutloqa ega bo'lmagan, uni Respublikamiz oliy ta'lim muassasalariga olib kirishga hech bir jihatdan kuchi yetmay alal oqibat “xo'rozqandni xorijniki desa yotib yalaydi” kabi fikrlarni asossiz net tarmoqlariga tarqatib yuradigan, fitna uyushtirishdan boshqa hech narsaga yaramaydigan “soha vakillari” ham yo'q emas.

Ular hech bo'lmaganda ta'limni rivojlantirishga bel bog'lagan yoshlar, yaxshigina xorijiy tajribaga ega mutaxassislar oyog'iga tushov bo'lmasalar Prezidentimiz aytgan va maqsad qilgan manzilga teziroq yetib borgan bo'lardik.

- 1) **Musiqiy-ritmik**da o'quvchi yaxshi qo'shiq aytadi, asbob chaladi, tinlash qobiliyati yuqori darajada, ritmni his qila oladi. Darslarda eshitish yaxshi o'rganadi balki buyuk kompozitor bo'lishi mumkin. Unda boshqa intellektdan ko'ra aynan shu qobiliyat kuchli rivojlangan.
- 2) **Vizual-ko'rish** bu umumiy insonning intellectual qobiliyati bo'lib, inson miyasida tasavvur qila olishi, katta rasmni yaqqol ko'ra olish bilan xarakterlanadi, injener yoki rassomlar ajoyib tasavvur va fantaziya sohiblari hisoblanadi.
- 3) **Lingvistik-og'zaki** bu so'zlarni ishlatish, o'qishni yaxshi ko'rish, tilni bilish va gapga ustalik bilan ajralib turadi, ayniqsa, bahslarda yaqqol bilinadi huquqshunos yoki yozuvchilarda yuksak darajada rivojlangan bo'ladi.
- 4) **Matematik-mantiqiy tahlil qilish**, muammo yechish, ilmiy jumboqlarga javob topishga oid va ko'pincha olimlar, injener hamda buxgalterlarning kuchli hislati hisoblanadi.
- 5) **Kinestetik-tana intellekti** bu tanasini yaxshi tushuna olish, o'zini tanasini boshqarish, qo'l oyoqlarining harakatlarini ko'p bajarishga urinadi, raqqoslar va sportchilar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Masalan, mashhur futbolchi Lionel Messi ajoyib kinestetik-tana intellektiga erishgan bo'lishi mumkin ammo matematik testlardan yiqilishi mumkin baribir unda sportga bo'lgan qobiliyat saqlanib qolaveradi.
- 6) **Odamlararo intellekt** bu odamlar bilan chiqishish, kelisha olish, murosa tanlashga oid boshqa insonlarning hissiyotlarini va fikrlarini yaxshi qabul qiladi, ular ko'pincha psixolog, savdogar yoki consultant bo'la oladi.
- 7) **Shaxsiy intellekt** esa bu o'z-o'zini anglash bilan bog'liq, o'zlarining hislari, fikrlari va motivatsiyalari tahlilida yaxshi, ko'pincha orzumand insonlar o'z-o'zini o'rganadigan insonlarga aytiladi, filosof yoki yozuvchi hamda nazariyachilar aynan shu soha vakillariga to'la.
- 8) **Tabiatga oid intellekt** bu bola xuddi tabiatni yaqinroq his qiladi, unga boshqa nigoh bilan qaraydi. Shuningdek, tabiatdagi o'zgarishlarga befarq emasligini ko'rsatadi, ular asosan fermer, bog'bon, biologlar vakili bo'lib yetishadi.

Umuman, bu nazariyaning yana bir ajoyib tomoni shundaki, ismiga monand, haqiqatda u ko'p qirrali intellekt ya'ni bolada faqat bitta emas balki bir qancha intellektual qobiliyatlar bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Albatta, bu intellektlar o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi, qaysidur biridan yaxshi bo'lsangiz, boshqa yana biri o'z navbatida kuchayadi. Jahon ta'lim tizimida matematika-mantiqiy intellektga juda katta e'tibor berilganki, agarda o'quvchi undan past bilsa aqliy salohiyati past hisoblanadi. To'g'ri matematika fanlar otasi va undan yaxshi bo'lgan bo'lgan inson boshqa fanlarni nisbatan oson o'rganar lekin boladagi talantlarga e'tibor berish lozim.

Ushbu nazariyani adabiyot faniga tatbiq qilishda bu orqali bola intellektining qaysi sohasi ko'proq rivojlanganini bilib olish mumkin.